

"Kapitalbank" ATB
Boshqaruvining
12/09/2024 yildagi 60/24-sonli bayonnomasi bilan
TASDIQLANGAN
Bank Boshqaruvi raisi
K.L. Maevskiy

**"Kapitalbank" ATBda jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati
ko'rsatish qoidalariga QO'SHIMCHALAR VA O'ZGARTIRISHLAR**

(2024-yil 23-sentyabrdan kuchga kiradi)

Toshkent-2024

I. "Kapitalbank" ATB Boshqaruvining 2019-yil 11-fevraldagi 5-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Kapitalbank" ATBning jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmati ko'rsatish qoidalari"ga (keyingi o'rnlarda "Qoidalar" deb yuritiladi) ilova qilingan 1-ilovaga ("Jismoniy shaxsning so'mdagi plastik kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish va bajarish tartibi") quyidagi o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilsin:

1.1. 1-ilova ("Jismoniy shaxsning so'mdagi plastik kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish va bajarish tartibi") quyidagi mazmundagi 5.2.2.1. kichik band bilan to'ldirilsin:

5.2.2.1. "Firibgarlik xavfi yoki Bank manfaatlariga boshqa tahdid tug'ilgan hollarda, Mijozning qo'shimcha ko'rsatmalarisiz (oldindan berilgan aksept) Karta hisobvarag'idan pul mablag'larini akseptsiz tartibda yechib olish. Bunda Bank hisobdan chiqarilgan pul mablag'larini sabablar aniqlangunga yoki sudning tegishli qarori/ajrimi (hukmi) yoxud boshqa vakolatlari organning qarori qabul qilingunga qadar maxsus bank hisobvarag'iga joylashtirishi mumkin."

1.2. 5.3-bandga o'zgartirish kiritish. 1-ilova ("Jismoniy shaxsning so'mdagi plastik kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish va bajarish tartibi") quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"5.3. Mijozning hisobvarag'i va/yoki kartasida pul mablag'lari ikki marta aks ettirilgan va Mijoz tomonidan asossiz sarflangan taqdirda yoki debet kartasi va/yoki hisobvarag'i bo'yicha overdraft (qarzdorlik) ga yo'l qo'yilgan taqdirda, Bank mijozning debet kartasi va/yoki hisobvarag'i bo'yicha pul mablag'larining ikki marta aks ettirilishi yoki overdraft (qarzdorlik) tufayli yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun Mijozning "Kapitalbank" ATBdagi milliy yoki xorijiy valyutadagi barcha hisobvaraqlari/kartalaridan, ular mavjud bo'lmaganda esa - Mijozning milliy yoki chet el valyutadagi boshqa hisobvaraqlari va boshqa bank kartalaridan mablag'larni qaytarilmaydigan va so'zsiz tartibda hisobdan chiqarish huquqiga ega bo'ladi.

1.3. 1-ilova ("Jismoniy shaxsning so'm plastik kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomani tuzish va bajarish tartibi") quyidagi mazmundagi 5.3.1-kichik band bilan to'ldirilsin:

"5.3.1. Ushbu Tartibning 5.3-bandida ko'rsatilgan qarzdorlik Mijozning chet el valyutadagi hisobvaraqlari/kartalaridan Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov kunidagi amal qilayotgan kursi bo'yicha milliy valyuta "so'm"ga konvertatsiya qilish yo'li bilan akseptsiz (bir tomonlama) tartibda yechib olinadi".

II. Qoidalarga qo'shimchalar kiritish, shu jumladan uning ilovalariga, o'zgartirishlar kiritishning mo'ljallangan sanasidan kamida 10 (o'n) kalender kun oldin bank tomonidan qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'lganligi sababli, mazkur qo'shimchalar 2024-yil 23-sentyabrdan e'tiboran kuchga kiradi.

III. Mijozlarni Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar haqida Bankning www.kapital24.uz internet-saytida tegishli e'lonni joylashtirish orqali xabardor qilish.

Kiritildi:

Karta mahsulotlari va onlayn xizmatlar bo'limi
boshlig'i

Satybaldina A.A.

Kelishildi:

Boshqaruv Raisining Birinchi O‘rinbosari	S.S. Ismailov
Boshqaruv Raisining o‘rinbosari	A.P. Glushenko
Boshqaruv Raisining o‘rinbosari	K.V. Tyan
Boshqaruv Raisining o‘rinbosari	Ye.A. Yenikeyeva
Muvofiqlikni nazorat qilish departamenti direktori	K.A. Xasanov
Yuridik xizmatlar departamenti direktori	V.V. Pachurin
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamentining bosh buxgalter-direktori	B.Sh. Xusainov
Xavfsizlikni boshqarish departamenti direktori	T.V. Kan